



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO
HAMKORLIK MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**



**2023-yil
19-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI”**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

2023-yil 19-oktabr

Toshkent – 2023

Tilshunoslarning kvantitativlik kategoriyasiga nisbatan bildirgan fikrlari hamda bu kategoriyani tasniflash bo'yicha qilgan takliflari turlicha. Kvantitativ metodlar, ayniqsa, statistik tilshunoslikda allaqachon o'zining mustahkam o'rnini egallagan. Kvantitativ analiz til hodisalarini aniq va atroflicha tadqiq qilish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, til birliklarini tartibli joylashtirish, to'g'ri o'rinlashuviga erishishga ko'maklashadi.

Tilshunoslarning kvantitativlik kategoriyasiga nisbatan bildirgan fikrlari hamda bu kategoriyani tasniflash bo'yicha qilgan takliflari turlicha. Kvantitativ metodlar, ayniqsa, statistik tilshunoslikda allaqachon o'zining mustahkam o'rnini egallagan. Kvantitativ analiz til hodisalarini aniq va atroflicha tadqiq qilish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, til birliklarini tartibli joylashtirish, to'g'ri o'rinlashuviga erishishga ko'maklashadi.

Umuman, predmet mohiyatini anglashda miqdoriy belgi sifatiiy belgi bilan barobar ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гумбольдт В. О сравнительном изучении языков применительно к различным эпохам их развития // Звегинцев В.А. История языкознания XIX –XX веков (в очерках и извлечениях). –М.: Просвещение, 1960. Т. 1.- С. 68-86.
2. Гулямов А.Г. О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке // Научные труды. ТашГУ, - № 211. – Ташкент, 1963;
3. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –М.: Просвещение, 1989.- С. 31
4. Zulfiyev Y. Jamlik kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari .O'zbek tili va adabiyoti, 1975, 4-son.
5. Fayzullayeva E. Birlik va uning kategorial mohiyati.//O'zbek tili va adabiyoti. 1985, 5-son.
6. Карасик В.И. Языковая пластика общения. Гнозис, 2021.-С.3.
7. Nurmonov A., Teshaboyev A., So'fixo'jayev N. Tabiiy va aniq fanlar atamalarini me'yorlashtirish muammolari//Ta'lim muammolari. 2000.3-son.
8. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. –Toshkent: Fan. 1982. -B.89.

TAXALLUSLARINING O'ZIGA XOS TALQINI VA TAHLILI

PERSONAL INTERPRETATION AND ANALYSIS OF NICKNAMES

Davronova Zarnigor *

Annotatsiya: *Onomastika masalalari har bir davr uchun dolzarb bo'lib kelgan. O'zbek nomenklaturasi o'ziga xos rivojlanish bosqichiga ega. Ayniqsa, XX asr boshlarida atroponimlarning rivojlanishini o'rganish o'zbek onomastikasi uchun muhim ilmiy xulosalar beradi. Taxalluslarning XX asr boshlaridagi taraqqiyotini, tarkibiy-semantik xususiyatlarini o'rganish, ularni tarixiy-etimologik va lingvistik-kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilishdan maqsad. XX asr boshlaridagi taxalluslarni tavsiflash, statistik, tarixiy-etimologik va lingvokognitiv tahlillarni amalga oshirish, strukturaviy tadqiq qilish vazifalari belgilab berilgan.*

Kalit so'zlar: *onomastika, ism, familiya, ota ismi, taxallus, taxallus, makon va zamon semantik tahlili, millat, bosqich, etimologiya, ijobiy, inkor.*

Abstract: *Issues of onomastics have been relevant for every era. Uzbek nomenclature has its own stage of development. Especially, the study of the development of atroponyms at the beginning of the 20th century provides important scientific conclusions for Uzbek onomastics.*

* O'qituvchi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: zarnigordavronova12@gmail.com

The goal is to study the development of nicknames at the beginning of the 20th century, their structural-semantic features, to analyze them from a historical-etymological and linguistic-cognitive point of view. The tasks of describing the nicknames of the beginning of the 20th century, carrying out statistical, historical-etymological and linguocognitive analyses, and structural research are defined.

Key words: *onomastics, name, surname, patronymic, nickname, nickname, semantic analysis space and time, nationality, stage, nickname, nickname, etymology, positive, negative, dialect.*

Tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy, etnografik, badiiy-estetik mohiyatga ega onomastik birliklarning eng qadimiy va asosiy turi antroponimik birliklar: ism, familiya, ota ism, laqab va taxalluslarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish doimo e'tiborda bo'lib kelgan. Zamonaviy o'zbek onomastikasining eng muhim bo'limlaridan biri bu antroponimikadir. O'zbek tilida antroponim termini o'rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar ham qo'llaniladi. Rus tilshunosi N.V.Podolskaya esa antroponim termini haqida fikr yuritir ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim (muallifning o'z ismi), patronim (shaxsni avlod-ajdodlari nomi bilan atash), genonim (urug', avlod-ajdod va ularning tarmoqlari atoqli oti) kabilar kirishini qayd qilgan [Подольская, 1978: 31].

O'zbek tilshunosligida ilk bor taxalluslar va laqablar adabiyotshunoslik aspektida B.Qoriyev, R.Vohidovlar tomonidan o'rganilgan. Bu jihatdan o'zbek onomastikasida E.Begmatov Y.Menajiev, X.Azamatov, D.Abduraxmonov, F.Abdulla, O.G'afurovlarning xizmati diqqatga sazovordir. Har qanday onomastik birlik ma'lum nominatsiya ehtiyoji tufayli yuzaga keladi, o'z navbatida, laqablar, taxalluslar ham mana shunday ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq laqablar ham juda ko'p uchraydi. Masalan: o'pka, tilla, tozapari, suvuyqmas, chopon yirtar, shomollar, shalpang, zakon, chittak, sichqon, chol, kampir, hallos, kapitan, masalchi, tentak, ovsar kurka kabi laqablar ko'p uchraydi. Kasb-kori va qiziqishlari tufayli ham laqablar qo'yiladi. Masalan: zakunchi, 722, po'choq, quloq, tunukachi, kosib, domla, mulla, sartarosh. Shu bilan birgalikda laqablarning bir insonga va urug'-aymog'ga tegishli bo'lganlarini ham uchratishimiz mumkin. Yuqorida keltirganimizdek insonning fel-atvori, kasb-kori, qiziqishlari sababli olgan laqablari asosan bir insonga tegishli bo'lsa-da, lekin bu laqablar uning butun urug'-aymog'ining ham laqabiga aylanishini kuzatganmiz.

Taxallus (arab tilida — qutulish, xalos bo'lish) — biror ijodkor (shoir, yozuvchi, olim va shu kabi) yoki siyosiy arbobilaning o'zi uchun tanlab olgan ikkinchi nomi. Har bir muallif taxallusini muayyan maqsadlarni ko'zda tutgan holda qo'llaydi. Masalan, omma o'rtasida o'z ijodini ta'kidlab ko'rsatish, o'z ism familiyasidan qoniqmaslik, muayyan xavf-xatar, tahdiddan qochish, yashirinish va boshqalar. Sharq san'ati va adabiyoti namoyandalari, katta olimlari o'zlariga turli narsalarga, sifat va xususiyatlarga ishora tarzida (Ulug'bek — Muhammad Tarag'ay, Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mujrim Obid, Munis, Zavqiy), mashg'uloti, kasbiga nisbatan (Gulxaniy, Charxiy), tug'ilgan yoki yashagan joyiga nisbatan (Buxoriy, Koshg'ariy, Marg'inoniy, Nasafiy, Taroziy, Xorazmiy, Xo'jandiy, Chustiy, Shoshiy, Yugnakiy, Yassaviy), yashash tarzi yoki qismatiga ishora sifatida (Gadoiy, G'aribiy, Uzlat, Muqimiy, Furqat) va boshqa omillarga karab Taxallus olganlar yoki tanlaganlar. Sharqda ham, G'arbda ham ko'pchilik ijodkorlar faqat Taxallusi bilan mashhur bo'lishgan. Masalan, Beruniy — Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad, Navoiy — G'iyosiddin o'g'li Alisher, Muqimiy — Muhammad Aminxo'ja o'g'li, Yashin — Komil Nu'monov, Chustiy — Nabixon Xo'jayev; Stendal — Anri Mari Beyl, Jorj Sand — Avrora Dyupen va boshqa Ba'zi shoirlar birdan ortiq Taxallus bilan (Navoiy — Foni; Mujrim — Obid; Nodir — Uzlat — Mahjur; Nodira — Maknuna — Komila kabi), ba'zan bir necha shoir bir Taxallus bilan ("Navoiy" Taxallusli 10 ga yaqin shoir bo'lgan) ijod qilganlar.

Sharq mumtoz adabiyotining deyarli barcha namoyandalari, ko'pchilik olimlar va ba'zi siyosiy arboblarni ma'lum Taxallusga ega bo'lishgan. Taxallus qo'llashning adabiyotshunoslikda

va tilshunoslikda ahamiyati katta: bayoz, devon, majmua kabi qo'lyozma manbalar matnlarida qo'llangan Taxallus tufayli tegishli asarlarning mualliflari aniqlangan. Navoiy Taxallusning shu ma'nodagi ahamiyatini "Lison ut-tayr" asarida quyidagicha izohlaydi:

Sahna debosi-yu nazm inshosidur,
Kim taxallus nozimi tamosidur.
Bu kim oni birla topti imtiyoz
Ne varaqkim, nazm qildi avin roz.
Kim bu Sa'diy yo Nizomiyning durur,
Yo bu Xusravning, bu Jomiyning durur.

XX asr ijodkorlari o'zlarining taxalluslarida shoir yoki yozuvchi o'z ismi va familiyasini qo'shimchasiz qo'llagan ko'rinishi uchraydi: G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Izzat Sulton, Jamol Kamol, Usmon Azim va boshqa. Taxallus biror ijodkor (shoir, yozuvchi, olim va shu kabi) yoki siyosiy arboblarning o'zi uchun tanlab olgan ikkinchi nomi. Har bir muallif taxallusni muayyan maqsadlarni ko'zda tutgan holda qo'llaydi. Masalan, omma o'rtasida o'z ijodini ta'kidlab ko'rsatish, o'z ism familiyasidan qoniqmaslik, muayyan xavf xatar, taxdiddan qochish, yashirinish va boshqadar. Kishilarning ismi, familiyasi, ota ismi, taxallusi va laqablari antroponimik birliklar hisoblanadi. Boshqa antroponimik birliklar va taxallus o'rtasidagi bog'liqlik quyidagilarda ko'rinadi: Ism, familiya, ota ism, laqab va taxalluslar antroponimik birliklar sirasiga kiradi. Bu jihatdan ular umumiylikka ega. Taxalluslar ism, familiya, ota ismdan hosil qilinishi mumkin. Bunday taxalluslar ism-taxalluslar deb ataladi. Laqab va taxalluslar shaxsning asosiy ismi, familiyasiga nisbatan qo'shimcha nom hisoblanadi, bu jihatdan ular yaqinlik va umumiylikka ega. Laqab termini o'tmishda taxallus ma'nosida ham qo'llangan. Ba'zi ijodkor va san'atkorlar o'z laqablarini taxallus sifatida qabul qilganlar. Bunday taxalluslar laqab-taxalluslar deb yuritiladi. Til tarixida taxallus tushunchasi laqab, kunya so'zlari bilan ham ifodalangan, biroq ular boshqa-boshqa birliklar, ularni farqlash lozim. Taxallus lug'aviy birligi asli arab tilidan o'zlashgan bo'lib, "o'zini o'zi qutqarish, ozod qilish, xalos bo'lish" degan ma'nolarini bildiradi. Keyinchalik uning ma'no-mundariyasi kengaygan hamda ilmiylashgan. Taxallusni antroponimik birlik sifatida quyidagicha ta'riflash mumkin: "biror ijodkor (shoir, yozuvchi) va san'atkor (rassom, bastakor, qo'shiqchi, raqqosa)lar, olim, siyosiy arboblarning asl ismi bilan birgalikda yoki ularning o'rnida qo'llanadigan, shaxsning o'zi tomonidan tanlab olingan, boshqa ikkinchi nomi". Olimlar taxallusni VII asrda paydo bo'lgan deb taxmin qilishadi. Ozarbayjon tadqiqotchilari taxalluslarni XII asrda paydo bo'lgan deb ta'kidlashadi. Qozoq, tojik va eron adabiyotida taxalluslar IX asrda paydo bo'lgan deb qaraladi. Bu xalqlar bilan yonma-yon yashagan va doimiy siyosiy hamda madaniy aloqalarda bo'lib kelgan o'zbek xalqida ham taxalluslar IX-X asrlarda ommalashgan deb aytish mumkin. Har qanday antroponimik birlik, jumladan, taxalluslar ma'lum nominatsiya ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. K.S.Mochalkina, V.G.Dmitriyev, S.Kolosovalar tomonidan taxalluslarning paydo bo'lish sabablari turlicha izohlangan. O.Nosirov, E.Bertelisning mulohazalariga tayangan holda, taxalluslarning paydo bo'lishi borasida quyidagi fikrni aytadi: "Klassik she'riyatdagi juda ko'p terminlar uyga aloqador so'zlardan tuzilgan (masalan, bayt –uy, rukn –ustun, tarse' –ayvon va boshqalar). Shoirlar ham o'z asarlarini ma'lum darajada binoga o'xshatgan bo'lsalar, she'r oxiriga taxallus qo'yish –me'morning o'zi qurgan binoga nomini yozib qo'yishdek bir hodisa ekani ajablanarli emas". Olim o'z qarashlarini: "Albatta, taxallusning paydo bo'lishida boshqa sabab va omillar bo'lishi ham mumkin. Ammo yuqorida aytilganlarning o'ziyoq taxallus qo'llash ma'lum ijtimoiy, hayotiy sabablar natijasida, hayot va turmush talablariga javob sifatida paydo bo'lganini qo'rsatib turibdi", – deya xulosalagan. "O'zbek taxalluslarining tarixiy manbalari va tadqiqi" masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbek tarixiy adabiy taxalluslarini to'plash va tadqiq etishda darslik, adabiy majmua va tazkiralari muhim manba hisoblanadi. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkisasi XV asr adabiy muhiti taxalluslari sirasini o'rganishda noyob manbadir. Asarda XV asrda Xuroson va qo'shni mamlakatlarda yashagan 459 ta forsiy va turkiy shoirlar hamda ularning noyob, betakror taxalluslari keltirilgan. Tazkirada shoirlar xronologiyaga (I, II, III), yashash hududiga (IV), kasb-kori va mansabiga

(V,VI,VII,VIII) qarab sakkiz majlisga taqsimlangan. Bu, albatta, XV-XVI asr adabiy, ilmiy, siyosiy, diniy muhitiga doir taxalluslarning nominatsion-motivatsion, lug'aviy-ma'naviy, yasaliş xususiyatlarini qiyosiy, areal, tarixiy aspektlarda o'rganishda muhim manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning tazkirasini til, hajm, materiallarning boyligi jihatidan davom ettirgan Po'latjon Qayumovning 3 jilddan iborat, 6 daftarga bo'lingan "Tazkirai Qayumiy" (1960) tazkirasini o'rta asrlardan to XX asrgacha yashab ijod etgan 324 nafar shoironing taxalluslarini o'rganishda benazir manbadir. Fazliy rahbarligida she'riy usulda yaratilgan "Majmuayi shoiron" (1821) tazkirasini XIX asr boshlari Qo'qon 793 adabiy muhitiga mansub 101 nafar shoironing taxallusi va ijodiy kontseptsiyasi, badiiy-g'oyaviy qarashlariga bog'liq qirralarini o'rganishda muhim ahamiyatga molikdir. O'zbek adabiyotshunosligida adabiy taxallus masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida atroflicha o'rganilmagan, biroq bu taxalluslarga doir umuman ish qilinmagan, degan xulosaga olib kelmasligi lozim. N.M.Mallayev, V.A.Abdullayev va G'.K.Karimov, A.Qayumovlarning darslik, tadqiqot va monografiyalarida ham taxalluslar to'g'risida qimmatli fikrlar berilgan. A.Xalilbekovning "Namangan adabiy gulshani", G'ani Majidning "Men bilgan andijonlik ijodkorlar" nomli kitoblari namanganlik, andijonlik shoir va yozuvchilarning taxalluslarini ham adabiy, ham lisoniy jihatdan o'rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Jahon adabiyotshunosligida taxalluslar lug'atlarini tuzish qadimgi davrlardayoq boshlangan. Taxalluslarga oid ilk lug'at 1652-yilda yaratilgan I.Sauersuning "O podpisyax i znakax, pod koimi skrytye istinnye imena" ("Imzolar va belgilar, ular ostida yashiringan haqiqiy ismlar") nomli ishidir. Keyinchalik Leypsigda F.Geysler "Obizmeneniyax imen i anonimnyx pisatelyax" ("Ismlarning o'zgarishi va noma'lum yozuvchilar to'g'risida", 1669), Gamburgda nemis yuristi V.Plaktsiy "Obozreniye anonimov i psevdonimov" ("Anonim va taxalluslar sharhi", 1674) nomli risolasini nashr etdi. V.Plaktsiyning o'limidan so'ng bu asar Fabritsius (1698) va Milius (1740) tomonidan to'ldiriladi va nashr qilinadi. 1806-1809-yillarda Antuan Barb'e fransuz taxallus va anonimlarini to'plagan hamda to'rt tomlik lug'at hoida nashr ettirgan. Rus filologiyasida ham taxalluslarni o'rganish lug'atlar tuzishdan boshlangan. Bibliograf I.F.Masanov rus yozuvchi, olim va siyosiy arboblarning taxalluslarini to'plagan. Keyinchalik bu ishni P.V.Bikov davom ettirgan. V.S.Kartsov va M.N.Mazayevlar taxalluslar lug'atini tuzish masalasini tadqiq etgan. S.Kolosovning taxalluslar qomusiy lug'atida 2500 ga yaqin rus va boshqa xalqlar, jumladan, ayrim o'zbek siyosiy arbob, olim, ijodkor hamda san'atkorlarining taxalluslariga izoh berilgan. Taxalluslarning turli jihatlari bir qator rus olimlari tomonidan tadqiq etilgan. K.S.Mochalkinaning dissertatsiyasida zamonaviy rus antroponomiyasida taxalluslarning o'rni, taxallus tanlash tarixi, taxallusning lingvistik maqomi, turlari, semantik-funksional xususiyatlari, tuzilish modellari, imloviy va grafik xususiyatlari XVIII-XIX asrlar bo'yicha to'plangan taxalluslar misolida tadqiq etilgan. Bu manbalar jahon, jumladan, rus filologiyasida taxalluslarga qiziqish ancha oldin boshlanganligini va bu sohada ma'lum yutuqlarga erishilganligini ko'rsatadi. Ozarbayjon tilshunosligida A.Pashayev va boshqalar tomonidan XI-XII asrlardan to XIX asrgacha bo'lgan davrda ijod qilgan shoir, adib, san'atkor, hunarmandlarning taxalluslari lingvistik jihatdan o'rganilgan, mukammal tasnif qilingan. O'zbek filologiyasida ilk bor taxalluslar adabiyotshunoslik aspektida Oltoy (B.Qoriyev), R.Vohidovlar tomonidan o'rganilgan. B.Qoriyev 20-yillardagi vaqtli matbuot sahifalaridan 430 ta taxallusni to'plagan. Bu adabiy taxalluslar lug'atini tuzish sohasidagi ilk qadam edi, biroq bu boradagi ishlar to'xtab qoldi. 80-yillarda o'zbek taxalluslarining lug'atini tuzish muhim vazifalardan biri ekanligi ta'kidlangan bo'lsa-da, hozirgacha bunday lug'at yaratilmadi. O'zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiyning taxalluslari E.Shodiyev, I.Haqqullar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida taxalluslar, xususan, taxallusdoshlar, ayrim taxalluslarning paydo bo'lishi, ma'nolari va qo'llanishi haqida ko'plab maqolalar yozilgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmida ko'pgina olimlar o'rtasida taxalluslarning, jumladan, Navoiy, Atoiy va Muhiy taxalluslarining imlosi yuzasidan munozaralar bo'lgan. E.Begmatov o'zbek tili antroponomik birliklari, jumladan, taxalluslarini etnolingvistik hamda lingvistik yo'nalishlarda keng ilmiy tahlil qilgan. N.Husanov Alisher

Navoiyning “Majolis-un-nafois” tazkirasida keltirilgan taxalluslarning lug‘aviy asoslari va ma'nolarini bergan.

XX asr ijodkorlaridan Abdulla Qodiriyning “Abdulla Qodiriy” to‘plamining 3-jildi – “Diyori baki” da adibning biz uchratmagan **J-b, M.Abdulla Q, M.A.Q, Mazlum (Eski shaharlik), Eski shayton, Mirza sovrin** kabi taxalluslarda e‘lon qilingan asarlari ham kiritilganki, ular taxalluslari sonini yanada oshiradi. Ana shularni inobatga olib, bugungi kungacha Qodiriyning 36 taxallusi aniqlangan ekan, deyish mumkin. [Safarov, 2018. 15].

Cho‘lpon (taxallusi; asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusov) Adibning ijodi 1913-1914-yillardan boshlangan bo‘lib, u avval «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat Cho‘lpon (Tong yulduzi) taxallusi bilan ijod qila boshladi.

Mashriq Yunus o‘g‘li Elbek 1898-yil Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanidagi Xumson qishlog‘ida tug‘ilib o‘tdi. Fitrat tomonidan tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” to‘garagida Mashriq o‘zining faoliyatini boshlab yubordi. Mashriq dastlab matbuotda bosilgan she‘r va maqolalarini “Chig‘atoy gurungi” taxallusi bilan e‘lon qilgan bo‘lsa, 1919-yil “O‘ksuz” nomli she‘ridan boshlab Ustozi tanlab bergan Elbek taxallusini qo‘llay boshladi. Bizga ma‘lumki, o‘tmish ajdodlarimizning ko‘pchiligi arab va fors so‘zlaridan taxallus tanlashgan. Tilsofligi uchun kurashgan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari esa bu ananadan voz kechib, sof turkey so‘zlardan taxallus tanlay boshladilar. Masalan, yuksak bilimva iqtidorga ega Fitrat guruh a‘zolari Botu, O‘ktam, Elxon, Elchi, Chig‘atoy, O‘g‘uz, O‘qtoy, Eltuzar Jig‘oy Yildirim kabi jasurlik, qahramonlik bobida dong taratgan ajdodlarimiz nomlari asosida taxallus tanlab bergan. [Bobomurodova Sh., 2020: 23].

Xulosa qilib aytganda, taxallus Sharq mumtoz adabiyotining deyarli barcha namoyandalari, ko‘pchilik olimlar va ba‘zi siyosiy arboblarning ma‘lum taxallusga ega bo‘lishgan. Taxallus qo‘llashning tilshunoslikda ahamiyati katta. O‘zbek antroponimikasining erishgan yutuqlari juda salmoqli, lekin bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar, qator muammolar ham bor. Bular kelgusida albatta yechimini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қораев Т., Воҳидов Р. Тахаллуслар.–Тошкент: Фан, 1979.–Б.31-32.
2. Қориев Б. Адабий тахаллуслар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти.–Тошкент, 1967. –№1. – Б.51-58; Ўша муаллиф. Тахаллуслар // Фан ва турмуш, 1966. –№ 4. –Б.20-22;
- 3.Қораев Т., Воҳидов Р. Адабий тахаллуслар. –Тошкент, 1978.
4. Safarov Xoliyor. Julqunboy, Dumbulboy, Boyqush, Ovsar – Abdulla Qodiriyning nechta taxallusi bo‘lgan? Oyina
5. O‘zbekiston Milliy ensklopediyasi. 2005 -yil
6. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. -Тошкент: 1966 й.
7. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М. : Наука, 1978.
8. Bobomurodova Sh.E. Elbekning tilshunoslik merosi. – Toshkent, 2020.

SEMANTIC AND STRUCTURAL PECULIARITIES OF EUPHEMISMS

EVFEMIZMLARNING SEMANTIK VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Ismailova Hilola *

***Abstract:** This article is devoted to the linguocultural characteristics of euphemisms, in which euphemisms related to business and the field in English, Uzbek and Russian languages are discussed. A euphemism is a less offensive word or phrase that may offend or suggest something*

* Teacher of English Language and Literature Department Kokand State Pedagogical Institute. E-mail address:ismailovaxilola4906@gmail.com